

---

UO'K 669.002.68

## PARABOLIK KONSENTRATORLI GELIOPIROLIZ QURILMASINING HARORAT REJIMINI TADQIQ QILISH

Almardanov Hamidulla Abdig'anievich – katta o'qituvchi, e-mail: [hamid\\_8191@gmail.com](mailto:hamid_8191@gmail.com)

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O'zbekiston

**Annotatsiya.** Maqolada parabolik quyosh kontsentratori yordamida biomassa va uglevodorodli chiqindilarni geliopiroliz jarayonining harorat rejimlari eksperimental o'r ganilgan. Tajribalar uchun eksperimental parabolik kontsentratorli geliopiroliz qurilmasi yaratilgan va uning geometrik, konstruktiv va issiqlik-texnik xarakteristikalari asoslangan. Shuningdek tajribalar 100÷870 °C harorat oraliq'ida polietelin pylonka pirolizida o'tkazilgan. Turli harorat qiymatlari geliopiroliz qurilmasi reaktorining xarakterli nuqtalarida olingan. Tajribalar shuni ko'rsatadi, Qarshi shahri sharoitida organik chiqindilar va biomassa pirolizi uchun kerakli bo'lgan 300÷500 °C haroratni parabolik kontsentrator yordamida hosil qilish mumkinligi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** geliopiroliz, parabolik konsentrator, reaktor, organic chiqindi, issiqlik miqdori, muqobil yoqilg'i, harorat, quyosh radiatsiyasi.

УДК 669.002.68

## ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕМПЕРАТУРНОГО РЕЖИМА ГЕЛИОПИРОЛИЗНОЙ УСТАНОВКИ С ПАРАБОЛИЧЕСКИМ КОНЦЕНТРАТОРОМ

Алмарданов Хамидулла Абдиганиевич – старший преподаватель,  
e-mail: [hamid\\_8191@gmail.com](mailto:hamid_8191@gmail.com)

Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

**Аннотация.** Статья посвящена к экспериментальному исследованию температурного режима процесса гелиопиролиза биомассы и углеводородсодержащих отходов с применением параболического солнечного концентратора. Разработана экспериментальная гелиопиролизная установка с параболическим солнечным концентратором и обоснованы его геометрические, конструктивные и теплотехнические характеристики. Экспериментально исследовано температурное поле цилиндрического реактора при пиrolize полимерных отходов в интервале температуры 100÷870 °C. Получены температурные значения в характерных точках реактора гелиопиролизной установки. Эксперименты показывают, что в условиях города Карши можно создать режим 300÷500 °C с применением параболического концентратора, достаточный для пиroliza органических отходов и биомассы.

**Ключевые слова:** гелиопиролиз, концентратор, пиrolизный реактор, количество тепла, концентрация, альтернативное топливо, температура.

UDC 669.002.68

## STUDY OF THE TEMPERATURE REGIME OF THE HELIOPYROLISIS DEVICE WITH A PARABOLIC CONCENTRATOR

Almardanov Xamidulla Abdiganievich – Senior lecturer, e-mail: [hamid\\_8191@gmail.com](mailto:hamid_8191@gmail.com)

Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi city, Uzbekistan

**Abstract.** The article is devoted to an experimental study of the temperature regime of the process of heliopyrolysis of biomass and hydrocarbon-containing wastes using a parabolic solar concentrator. An experimental heliopyrolysis plant with a parabolic solar concentrator has been developed and its geometric, design and thermal characteristics have been substantiated. The temperature field of a cylindrical reactor during the pyrolysis of polymeric wastes in the temperature range of 100÷870 °C was experimentally investigated. The temperature values are obtained at the

*characteristic points of the reactor of the heliopyrolysis plant. Experiments show that in the conditions of the city of Karshi it is possible to create a regime of 300–500 °C using a parabolic concentrator, sufficient for the pyrolysis of organic waste and biomass.*

**Key words:** *heliopyrolysis, concentrator, pyrolysis reactor, amount of heat, solar radiation, concentration, alternative fuel, temperature.*

### Kirish

Jahonda energetika sohasida iste'molchilarni xavfsiz va barqaror energiya bilan ta'minlashda muqobil energiya manbalaridan foydalanish, energiya balansini deversifikatsiyalash va ushbu sohada ekologik talablarga rioya qilish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxida energiya sarfini kamaytirish alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahan amaliyotida quyosh energiyasidan binolarni yoritish, isitish, havoni sovutish, shamollatish, issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish maqsadida foydalanish yo'lga qo'yilgan [1, 2, 3]. Quyosh energiyasidan foydalangan holda biomassadan yoqilg'i va energiya ishlab chiqarish birinchi navbatda qishloq aholi turar joylari, fermer xo'jaliklari va yakka tartibdagi uylar shaklida avtonom va uzoq masofada joylashgan energiya iste'molchilarini qiziqtiradi. Shu sababli yoqilg'i, issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun o'simlik biomassasini qayta ishslash asosan qishloq aholisini, ayniqsa, yoqilg'i-energiya resurslari yetishmaydigan hududlarni energiya bilan ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi.

So'nggi yillarda biomassadan muqobil yoqilg'i olishda piroliz qurilmasidan foydalanish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar ushbu sohada ahamiyatli darajadagi nazariy va amaliy natijalarga erishilganligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda xorijlik olimlar tomonidan piroliz jarayonida quyosh konsentratorlaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Ayala Kortes tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda biomassa pirolizida issiqlik hosil qilish uchun parabolasilindrik konsentrator taklif qilingan. Bunda piroliz reaktori sferik shaklda yasalgan va unda harorat 450–1550 °C oralig'ida bo'lishi ta'minlangan. Natijada 1,4 % gaz, 21 % qattiq ko'mir va 77,6 % suyuq bioyoqilg'ilar olingan [4]. J.Koreyalik tadqiqotchi Rui Li tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda vertikal o'qli reaktorda quyosh nuri avval geliosstat bilan aks ettiriladi, so'ngra 2 m diametrli parabolik konsentrator bilan konsentratsiyalanadi. Fokusga o'rnatilgan 185 mm diametrli (6 l hajmli) shaffof reaktorida biomassa 800 °C gacha qizdiriladi. Bunda biomassadan 63,5 % gaz ajralib chiqishi kuzatilgan [5]. Boutin tomonidan konsentratsiyalangan quyosh nurlanishidan foydalangan holda biomassaning pirolizi o'rganilgan. Bunda reaktor sifatida vertikal joylashtirilgan shisha trubkadan foydalanilgan. Biomassa pirolizida yog'och bo'laklaridan foydalanilgan va 5 kVtli lampalar orqali suniy quyosh laboratoriya qurilmasi yaratilgan [6]. Xitoylik tadqiqotchi Yingpu Xie tomonidan bioyoqilg'i ishlab chiqarish uchun paxta g'o'zapoyasi pirolizi tadqiqot qilingan. Bunda quyosh piroliz tajribalari haqiqiy quyosh o'rni 4 kVt quvvatga ega quyosh simulyatori bilan qizdiriladigan reaktorda o'tkazilgan [7]. M.Sanchez tomonidan quyosh piroliz tizimini modellashtirilgan va boshqa tizimlar bilan taqqoslangan. Jarayonning ishchi harorati 571 K va davomiyligi mos ravishda 149 minutga teng. Frensel reflektorli tizimda reaktorning uzunligi 3,23 m, azimut burchagi 39° va konsentratorning aperturasi 4,55 m<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Hosil qilingan maksimal quvvat jarayon uchun sarflanadigan energiyaning 40,8 %ni tashkil etadi. Buning natijasida tizim orqali 13,9 tonna biomassadan 1375 kg ko'mir hosil qilingan [8]. MDH davlatlaridan belaruslik olimlar N.G.Xutskaya va I.G.Palchenoklar tomonidan biomassa pirolizida quyosh konsentratorlarining qo'llanilishi tadqiqot qilingan [9]. Mamlakatimizda ham keyingi yillarda quyosh energiyasidan turli texnologik jarayonlarda foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va amaliy natijalarga erishilgan. Jumladan, mahalliy biomassadan piroliz usulida muqobil yoqilg'i olish bo'yicha G'.N.Uzoqov, R.T.Rabbimov, X.A.Davlonov tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan [10, 11, 12].

Ammo o'tkazilgan tadqiqot natijalariga qaramay biomassa energiyasidan muqobil yoqilg'i olish uchun piroliz qurilmasining energiya samaradorligini oshirishda quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha etarlicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Shu sababli, piroliz qurilmasida biomassadan

muqobil yoqilg'i olish uchun quyosh qurilmalaridan foydalanish samaradorligini asoslash dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi quyosh konsentratorli geliopiroliz qurilmasining harorat rejimi va issiqlik-texnik xarakteristikalarini tadqiq qilishdan iborat.

### **Uslug va materiallar**

Piroliz qurilmalarida xususiy ehtiyoji uchun energiya sarfini kamaytirish asosiy muammolardan hisoblanadi. Chunki reaktorda harorat rejimini ta'minlash uchun dastlab energiya (issiqlik) berilishi kerak. Odatda piroliz qurilmalarida amalga oshiriladigan jarayonlar ko'mir, tabiy gaz yoki elektr energiyasini sarflash hisobiga amalga oshiriladi. Chunki biomassa chiqindilarini parchalash uchun juda katta issiqlik energiyasi talab etiladi va biomassani qo'shimcha qizdirish ortiqcha energiya sarfini talab qiladi [11].

Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar natijasida biomassa pirolizi jarayonida quyosh konsentratorlaridan foydalanish usuli, yani geliopiroliz usuli taklif qilindi hamda tajribaviy qurilma yaratildi [13]. Quyosh konsentratorining asosi sifatida standart diametri  $d=1,8$  m bo'lgan parabolik konsentratoridan foydalanilgan. Uning aks ettiruvchi yuzasi o'lchamlari  $2,5 \times 2,5 \text{ sm}^2$  bo'lgan 4000 ta shisha ko'zgulardan yasalgan (1-rasm).



1-rasm. Quyosh konsentratorli geliopiroliz qurilmasi.

Quyosh konsentratori asosidagi geliopiroliz qurilmasi ekologiyaga zarar yetkazmaydi va jarayon uchun sarflanadigan energiya sarfini kamaytiradi. Jarayon uchun talab etiladigan harorat parabolik quyosh konsentratorlari orqali hosil qilinadi. Taklif etilgan usulning afzalliklari shundan iboratki, biomassa pirolizi jarayonida quyosh konsentratorlaridan foydalanib reaktorni quyosh energiyasi bilan doimiy qizdirish mumkin [14].

O'tkazilgan tajriba tadqiqotlarida quyosh konsentratorli geliopiroliz qurilmasining optimal parametrlari aniqlandi va hosil qilingan energiya quyosh konsentratorlarining aperturasiga bog'liqligi tadqiqot qilindi. Termodinamikaning birinchi qonuni jarayon uchun zarur bo'lgan energiyani hisoblashning nazariy termodinamik yondashuv asosi bo'lib xizmat qiladi. Biomassa geliopirolizida zarur bo'lgan energiya talabi ma'lum bir vaqtida biomassani qizdirish uchun quyosh konsentratorlarining yuzasiga, qurilmaning foydali ish koeffitsientiga, sirtning nur qaytarish koeffitsientiga, biomassa miqdoriga va haroratlar farqiga bog'liq ekanligi aniqlandi [15].

Geliopiroliz reaktorida yutilgan energiya quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{geliop.reak} = \eta_{opt} \cdot Q_{kons}. \quad (1)$$

Parabolik quyosh konsentratori aperturasiga tushuvchi quyosh energiyasi hisobiga hosil bo'lgan energiya:

$$Q_{kons} = I_{rad} \cdot F_{kons}, \quad (2)$$

bu yerda  $I_{rad}$  –konsentrator sirtiga tushuvchi quyosh radiatsiyasi,  $Vt/m^2$ .

Parabolik quyosh konsentratorining aperturasi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$F_{kons} = \frac{\pi \cdot d_{kons}^2}{4}, \quad (3)$$

bu yerda  $d_{kons}$  –parabolik konsentrator diametri, m.

Konsentratorning optik samaradorlik koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi [7]:

$$\eta_{opt} = R_k \cdot a_r \cdot \cos\varphi, \quad (4)$$

bu yerda  $R_k$  –konsentrator sirtining nur qaytarish koeffitsiyenti;  $a_s$  – reaktor sirtining nur yutish koeffitsiyenti;  $\cos\varphi$  –quyosh nurlarining konsentrator sirtiga tushish burchagi.

Geliopiroliz reaktoriga yuklangan chiqindini piroliz jarayoni sodir bo‘lish haroratigacha oshirish uchun sarflangan issiqlik miqdori quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$Q_{biom} = c_b \cdot \rho_b \cdot V_b \cdot (t_{pir} - t_b), \quad (5)$$

bu yerda  $c_b$  –biomassa issiqlik sig‘imi,  $\frac{J}{kg \cdot ^\circ C}$ ;  $\rho_b$  –biomassa zichligi,  $\frac{kg}{m^3}$ ;  $V_b$  –biomassa hajmi,  $m^3$ .

### Natijalar va munozara

Geliopiroliz jarayoni uchun talab etiladigan energiya quyosh radiatsiyasining turli qiymatlarida qabul qilindi va natijalar tajribalarda aniqlandi. Parabolik konsentratorli geliopiroliz qurilmasining asosiy parametrлari 1-jadvalda keltirildi. Geliopiroliz reaktoring parametrлari 2-jadvalda, qurilma bevosita tashqi muhitda joylashgani uchun atrof-muhit parametrлari 3-jadvalda keltirildi. Bunda issiqlik sig‘imi  $2300 J/(kg \cdot ^\circ C)$  bo‘lgan 1 kg polietilen pylonka chiqindisi reaktor ichida termik qayta ishlandi. 4-jadvalda polietilen pylonka chiqindisining parametrлari ko‘rsatilgan bo‘lib, bunda uning namligi 5-10 % ni, quyosh nurlanishi 5 soat davomida  $950 \text{ W/m}^2$  ekanligi hisobga olindi. 5-jadvalda geliopiroliz reaktori haroratini o‘rganish tajriba natijalari keltirilgan. Polietilen pylonkaning issiqlik sig‘imlari qiymatlari adabiyotlardan olingan va ularni model ichida o‘zgartirish mumkin [16, 17, 18].

1-jadval

#### Parabolik konsentratorli geliopiroliz qurilmasining asosiy parametrлari

Parametrлar nomlanishi	Belgilanishi	Birligi	Qiymati
Konsentrator aperturasi	$F_{ap}$	$m^2$	2,54
Konsentrator diametri	$d$	$m$	1,8
Fokus masofasi	$l_f$	$m$	0,7
Konsentratsiya koeffitsienti	$K_k$	-	126
Tushadigan quyosh radiatsiyasi:			
maksimal	$q_{rad,max}$	$W/m^2$	1035
minimal	$q_{rad,min}$		930
Kondensator suvi harorati:			
kirish	$t_1$	$^\circ C$	18,5
chiqish	$t_2$	$^\circ C$	37,7
Sovituvchi suvning sarfi	$G$	$kg/sek$	0,017

2-jadval

#### Geliopiroliz reaktoring parametrлari

Parametrлar nomlanishi	Belgilanishi	Birligi	Qiymati
Reaktor hajmi	$V_{reak}$	$m^3$	0,003
Reaktor issiqlik almashinuv yuzasi	$F_{reak}$	$m^2$	0,0002
Reaktor uzunligi	$l_r$	$m$	0,2
Reaktor materialining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti (po‘lat)	$\lambda_{r,m}$	$W/(m \cdot ^\circ C)$	45-50
Reaktor devorining qalinligi	$\delta_{r,m}$	$mm$	1
Reaktor devorining ichki sirti harorati	$t_{d,i}$	$^\circ C$	350÷450
Reaktor devorining tashqi sirti harorati	$t_{d,t}$	$^\circ C$	500÷800
Reaktoring ichki diametri	$d_2$	$mm$	158
Reaktoring tashqi diametri	$d_1$	$mm$	160

3-jadval

**Atrof-muhit parametrlari (Qarshi shahri)**

Parametrlar nomlanishi	Belgilanishi	Birligi	Qiymati
Tashqi havo harorati	$t_a$	°C	30÷40
Shamolning o'rtacha tezligi	$\omega$	m/s	2,0÷3,0
Havoning nisbiy namligi	$\varphi_h$	%	30÷40
Havoning dinamik qovushqoqligi	$\mu_h$	mkN · s/m <sup>2</sup>	18,1
Havoning kinematik qovushqoqligi	$\nu_h$	mkm <sup>2</sup> /s	15,06
Havoning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti	$\lambda_h$	$Vt/(m \cdot °C)$	0,0257

4-jadval

**Polietilen pylonka chiqindisi geliopirolizi jarayonining asosiy parametrlari**


Parametrlar nomlanishi	Qiymati	Birligi
Reaktorga yuklangan mahsulot miqdori	1,0	kg
Mahsulot namligi	5-10	%
Mahsulotning solishtirma issiqlik sig'imi	2300	J/(kg · °C)
Mahsulotning yuklashdagi harorati	20	°C
Jarayon davomiyligi	300	min

5-jadval


**Geliopiroliz reaktori haroratini o'lchash tajriba natijalari**

T/r	Vaqt	Tushadigan quyosh radiasiysi $q_r, Vt/m^2$	Tashqi havo harorati $t_{tx}, °C$	Reaktorning turli nuqtalaridagi haroratlar $t_r, °C$				Reaktordagi o'rtacha harorat $t_{ort}, °C$
				1	2	3	4	
1	11 <sup>00</sup>	1002	31	720	173	140	109	285,5
2	12 <sup>00</sup>	1030	33	814	310	205	183	378
3	13 <sup>00</sup>	1035	36	890	375	230	198	423,25
4	14 <sup>00</sup>	1020	36	870	360	220	190	410
5	15 <sup>00</sup>	990	37	842	315	208	176	385,25
6	16 <sup>00</sup>	970	38	813	300	195	170	369,5
7	17 <sup>00</sup>	930	37	755	290	170	156	342,75

Konsentrator sirti, issiqlik almashinuv apparati, reaktorning xarakterli nuqtalaridagi haroratlar Teplovizor Snegir-700MT asbobi yordamida qayd qilib borildi. O'lchov natijalari 2, 3, 4, 5-rasmlarda keltirildi.




2-rasm. Quyosh konsentratorining sirtidagi harorat.



3-rasm. Issiqlik almashinuv apparati (sovutkich) sirtidagi harorat.



4-rasm. Reaktorning tashqi sirtidagi harorat.



5-rasm. Reaktorning xarakterli nuqtalaridagi haroratlar shkalasi.

## Xulosa

Quyosh konsentratorli geliopiroliz qurilmasining harorat rejimini tadqiq qilish orqali qurilmaning asosiy parametrlari reaktorga yuklangan mahsulotning turiga bog'liq ravishda o'zgarishi tajribalarda aniqlandi. Tajribalar 2023-yil 1-iyun soat 11<sup>00</sup> dan 17<sup>00</sup> gacha bo'lgan vaqt oralig'ida, o'rtacha tashqi muhit harorati 35,4 °C, quyosh radiatsiyasining o'rtacha qiymati 990 Vt/m<sup>2</sup> bo'lganda o'tkazildi. Bunda aperturasining yuzasi 2,54 m<sup>2</sup> bo'lgan parabolik quyosh konsentratori fokusiga hajmi 0,003 m<sup>3</sup> bo'lgan reaktoriga polietelin pylonkani yuklash orqali amalga oshirildi. Olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra geliopiroliz reaktoriga polietelin pylonka yuklanganda ichkaridagi harorat o'rtacha 370,6 °C ni tashkil etishi aniqlandi. Qarshi shahri iqlim sharoitida konsentrator aperturasiga quyosh radiasiyasi miqdori o'rtacha 800÷900 Vt/m<sup>2</sup> bo'lganda, reaktor sirtida quyosh nurlanishining konsentrasiyanishi natijasida harorat 500÷800 °C ni tashkil etdi. O'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra taklif etilgan geliopiroliz usuli qurilmaning energiya samaradorligini oshirish imkonini berishi aniqlandi.

## Adabiyotlar

- [1] Avezov R.R., Voxidov A.U., Kuralov M.A. Quyosh energetikasining O'zbekiston Respublikasida rivojlantirish tamoyillari // Qayta tiklanuvchi energetikaning zamonaviy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumanı materiallari to'plami. Qarshi. 18 mart 2018y., 11-13 b.
- [2] Klychev Sh.I., Zakhidov R.A., Bakhramov S.A., Fasylov A.K., Dudko Yu.A. Solar Radiation Concentration in Parabolocylindrical System with Focusing Wedge // Applied Solar Energy. 2009. 101.
- [3] Захидов Р.А., Умаров Г.Я., Вайнер А.А. Теория и расчёт гелио технических концентрирующих систем. Ташкент: ФАН, 1977.
- [4] Ayala-Cortés A., Arancibia-Bulnes C.A., Villafán-Vidales H.I., Lobato-Peralta D.R., Martinez-Casillas D., Cuentas-Gallegos A.K. Solar pyrolysis of agave and tomato pruning wastes: insights of the effect of pyrolysis operation parameters on the physicochemical properties of biochar. In: A Paper Presented at the SolarPACES Conference in Morocco, 2018.
- [5] Li, R., Zeng, K., Soria, J.E., Mazza, G.A., Gauthier, D., Rodriguez, R., Flamant, G. Product distribution from solar pyrolysis of agricultural and forestry biomass residues. Renew. Energy 89, 27–35.
- [6] Beagle, E., 2012. Fast Pyrolysis of Biomass using Concentrated Solar Radiation. In: A Presentation to School of Energy Resources, University of Wyoming.
- [7] Yingpu Xie, Kuo Zeng. Solar pyrolysis of cotton stalk in molten salt for bio-fuel production. Energy 179 (2019) pages 1124-1132.
- [8] M. Sanchez, B. Clifford, J.D. Nixon. Modelling and evaluating a solar pyrolysis system. Renewable Energy, 116 (2018), pages 630-638.

- 
- [9] Хутская Н.Г., Пальчёнок Г.И. Энергосберегающие технологии термохимической конверсии биомассы и лигнокарбонатных отходов: учебно-методическое пособие. Минск: БНТУ, 2014. - 53 с.
- [10] Uzakov, G.N., Davlonov, H.A. & Holikov, K.N. Study of the Influence of the Source Biomass Moisture Content on Pyrolysis Parameters. *Appl. Sol. Energy* 54, 481–484 (2018). <https://doi.org/10.3103/S0003701X18060178>
- [11] Uzakov G.N., Novik A.V., Davlonov X.A., Almardanov X.A., Chuliev S.E. Heat and Material Balance of Heliopyrolysis Device. ENERGETIKA. Proceedings of CIS higher education institutions and power engineering associations. 2023; 66(1):57-65. <https://doi.org/10.21122/1029-7448-2023-66-1-57-65>
- [12] Xayrulla Davlonov, Xamidulla Almardanov, Inomjon Khatamov, Sadreddin Urunboev, Palvan Kalandarov, and Orif Olimov, "Study on heat and material balance of heliopyrolysis device", AIP Conference Proceedings 2686, 020023 (2022) <https://doi.org/10.1063/5.0111855>
- [13] Almardanov, H. and Chuliyev, S. 2022. Biomassadan geliopiroliz usulida yoqilg‘i olish tajriba qurilmasining parametrlarini asoslash. Innovatsion texnologiyalar. 1, 4 (Nov. 2022), 92–96.
- [14] Алмарданов Хамидулла Абдиганиевич, Хатамов Иномжон Амруллаевич, Тураев Зухриддин Баходирович, Эшонкулов Мансур Насим угли, Жовлиев Сарвар Мустафо угли, Юсупов Рустам Эшпулатович. Применение солнечных концентраторов для приема альтернативного топлива через устройство гелиопиролиза // Universum: технические науки. 2021. №3-4 (84).
- [15] Давлонов X.А., Алмарданов X.А., Гадоев С.А., Шаймарданов И.З. Исследование теплового режима процесса гелиопиролиза биомасса // Универсум: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 4(85) 5-8 ст. <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11550>
- [16] Sh.B.Imomov, X.A.Alimardonov. Heat mode solar heating systems based on flat reflectors, sets on the north side of the building. Молодой ученый, 2015, 335-336 ст.
- [17] Т. Я.Хамраев, X.А.Алмарданов. Режим работы установок для получения биогаза из сельскохозяйственных отходов. Журнал: Молодой ученый. — 2020. — № 25 (315). — С. 49-52.
- [18] Davlonov X.A., Almardanov H.A., Toshboyev A.R., Umurov F.B. Method of Thermal Processing of Biomass With Heliopyrolysis Device. 2021, International Journal of Human Computing Studies, 3(2), 149-151.